



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025-yil 16-iyul, № 144 (9039)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N I

ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISHDA ISTIQBOLLI TASHABBUSLARNI YANADA QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RSIDA

Mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy o'sishini ta'minlash jarayonida keng aholi qatlamining ishtirokini hamda ularning turli sohalaridagi istiqbolli tashabbuslarini rag'batlantirish va innovatsion faolligini yanada oshirishning samarali mexanizmlarini joriy qilish maqsadida **qaror qilaman**:

I. Maqsadlar

1. Quyidagilar aholining istiqbolli tashabbuslarini rag'batlantirish chora-tadbirlarining **asosiy maqsadlari** etib belgilansin:

a) **samarali va xalqchil** islohotlarni **amalga oshirishda keng jamoatchilik** va jamiyatning **turli qatlamlari** vakillari, xususan, **yetuk mutaxassislar, yoshlar, tadbirkorlar, faol fuqarolar** va **vatandoshlarning** (keyingi o'rinlarda – keng aholi qatlami) ishtirokini qo'llab-quvvatlash;

b) **mamlakat raqobatbardoshligini** oshirish, yangi texnologiyalar va **ilm-fan yutuqlarini** integratsiya qilish;

v) istiqbolli tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash maqsadida keng aholi qatlami uchun **ochiq muloqot maydonini** yaratish;

g) zamonaviy, ilg'or g'oyalar va istiqbolli tashabbuslarni **saralash va tanlab olishning samarali mexanizmlarini** joriy qilish.

II. “Kelajak uchun” istiqbolli tashabbuslar forumini o'tkazish

2. 2025-yildan boshlab har yili “Kelajak uchun” istiqbolli tashabbuslar forumini (keyingi o'rinlarda – Forum) o'tkazib borish amaliyoti joriy qilinsin.

3. Belgilansinki:

a) Forum “O'zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishish jarayonida keng aholi qatlamining **istiqbolli tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga** hamda ularning faolligini **rag'batlantirish** va keng **targ'ib qilishga** qaratilgan;

b) Forum o'tkaziladigan ustuvor yo'nalishlar har yili “Kelajak uchun” istiqbolli tashabbuslar forumiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha **tashkiliy qo'mita** (keyingi o'rinlarda – Tashkiliy qo'mita) tomonidan belgilab beriladi;

v) Forumga umumiy tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish **Tashkiliy qo'mita**, istiqbolli tashabbuslarni baholash **Mentorlar kengashi** tomonidan amalga oshiriladi;

g) Strategik islohotlar agentligi Forumga kelib tushgan istiqbolli tashabbuslarni yig'ish, ularning **yagona ro'yxatini shakllantirish**, maxsus **kraud platformaga** joylashtirish va **e'lon qilib borishga** hamda Forum natijasi bo'yicha

ma'qullangan istiqbolli tashabbuslarning mas'ul vazirlik va idoralar tomonidan **amalga oshirilishini muvofiqlashtirishga** mas'ul hisoblanadi;

d) Forumni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar 2025-yilda **Strategik islohotlar agentligini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi** mablag'lari hisobidan, 2026-yildan boshlab **Davlat byudjeti parametrlarida** nazarda tutib boriladi;

ye) Forumni o'tkazish joyini tegishli **vositalar** (bannerlar, videoroliklar, ekranlar, aloqa va boshqa vositalar) bilan ta'minlash **“Interforum” DUK** tomonidan amalga oshiriladi;

j) Forumning **endaument fondi** ixtiyoriy mablag'lar asosida shakllantiriladigan fond sifatida tashkil etiladi;

z) Forumda ma'qullangan istiqbolli tashabbuslarni tijoratlashtirish va moliyalashtirishga **“Biznesni rivojlantirish banki” ATB** va boshqa **tijorat banklari**, shuningdek, Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mas'ul hisoblanadi.

III. Tashkiliy chora-tadbirlar

4. Quyidagilar:

a) “**Kelajak uchun**” istiqbolli tashabbuslar forumiga **tayyorgarlik ko'rish** va uni o'tkazish bo'yicha **tashkiliy qo'mita** tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

b) “**Kelajak uchun**” istiqbolli tashabbuslar forumining **mentorlar kengashi** tarkibi 2-ilovaga muvofiq;

v) “**Kelajak uchun**” istiqbolli tashabbuslar forumini **o'tkazish tartibi to'g'risida** nizom 3-ilovaga muvofiq;

g) “**Kelajak uchun**” istiqbolli tashabbuslar forumini **2025-yilda o'tkazish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar rejas**i 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Belgilansinki:

a) Forumga tayyorgarlik jarayonida kelib tushgan istiqbolli tashabbuslar **top-50** va **top-10** talik tartibida **saralanadi**;

b) Mentorlar kengashi tomonidan **top-10** deb topilgan eng dolzarb istiqbolli tashabbuslar **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ishtirokida** o'tkaziladigan Forumning yalpi majlisida muhokama qilinadi;

v) Forumning yalpi majlisini o'tkazish yakunlari bo'yicha **ma'qullangan** istiqbolli tashabbuslarni amalga oshirish yuzasidan **chora-tadbirlar rejas**i ishlab chiqiladi;

g) chora-tadbirlar rejasiga kiritilgan istiqbolli tashabbuslarni amalga oshirish uchun **kredit** va **grantlar** ajratilishi, **soliq, bojxona** va boshqa rag'batlantirish choralari qo'llanishi mumkin;

d) Forum doirasida kelib tushgan boshqa tashabbuslar Vazirlar Mahkamasiga **davlat dasturlarini**, tegishli **soha, tarmoq** yoki **hududlarni rivojlantirish** bo'yicha chora-tadbirlarni shakllantirish maqsadida yuboriladi hamda Hukumat tomonidan ularni amalga oshirish yuzasidan zarur choralar ko'riladi.

6. Strategik islohotlar agentligi (**B.Raxmatov**) hamda Raqamli texnologiyalar vazirligi (**Sh.Shermatov**) Iqtisodiyot va moliya vazirligi (**I.Norqulov**), “Biznesni rivojlantirish banki” ATB (**S.Annaklichev**) va “Interforum” DUK (**B.Zufarov**) bilan birgalikda **ikki oy muddatda** Forumda ishtirok etishni xohlovchi shaxslarni ochiq elektron ro'yxatga olish, anketa to'ldirish, istiqbolli tashabbusning profili va kun tartibi, dasturi, ishtirok etish shartlari, shuningdek, boshqa ma'lumotlar olish imkoniyatini beruvchi **kraud platformasi yaratilishini** va **ishga tushirilishini** ta'minlasin.

7. Tashkiliy qo'mita (**B.Raxmatov**):

a) 2025-yilda o'tkaziladigan Forumning **ustuvor yo'nalishlarini** belgilasin;

b) **ikki oy muddatda** Forumni 2025-yilda o'tkazishning **aniq sanasi** va **joyi** haqida taklif kirtsin;

v) Forumni o'tkazish bo'yicha **tashkiliy chora-tadbirlar rejasining** sifati va o'z vaqtida **bajarilishini**, shuningdek, **mas'ul ijrochilar** faoliyati **muvofiqlashtirilishini** ta'minlasin.

8. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi va O'zbekiston Milliy axborot agentligi Forumni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bilan bog'liq tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida, jumladan, internet va ijtimoiy tarmoqlarda **keng yoritilishini** ta'minlasin.

IV. Farmon ijrosini tashkil etish, ta'minlash va nazorat

9. Mazkur Farmonning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib Strategik islohotlar agentligi direktori B.B.Raxmatov belgilansin.

10. Farmon ijrosini muhokama qilib borish, mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yordamchisi B.M.Mavlonov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti**

Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shohri,
2025-yil 14-iyul

VASHINGTONDA “O'ZBEKISTON BIZNES YETAKCHILARI” DASTURI MUHOKAMASI



Mamlakatimizning AQShdagi elchixonasi diplomatlari “Amerika kengashlari” tomonidan uyushtirilgan “O'zbekiston biznes yetakchilari” dasturiga bag'ishlangan davra suhbatida ishtirok etdi.

Biz va jahon

Unda, shuningdek, Davlat departamenti xodimlari, biznes hamjamiyati, ekspertlar va akademik doiralr vakillari hamda “O'zbekiston biznes yetakchilari” almashinuv dasturining 2025-yilgi tanlovi g'oliblari qatnashdi.

Tadbirda “Amerika kengashlari” prezidenti Liza Choate, AQSh Davlat kotibining ta'lim va madaniyat masalalari bo'yicha yordamchisi o'rinbosari Rebekka Passini, O'zbekiston elchisi Furqat Sidiqov, Resurslarni rivojlantirish bo'yicha milliy markaz direktori Jo Kapp, “Amerika – O'zbekiston” savdo palatasi ijrochi direktori Yelena

Son, Xalqaro taraqqiyotni moliyalashtirish korporatsiyasi bo'lim direktori Tara Bleyk ma'ruza qildi.

Anjuman doirasida bo'lib o'tgan birinchi sessiyada O'zbekiston va AQSh iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish bosqichlari, biznes doiralarning almashinuv dasturlari hamda olingan bilimlarning mamlakatlarimiz o'rtasidagi o'zaro savdoni oshirishdagi o'rni muhokama qilindi. Ikkinchi sessiyada ishtirokchilar o'rtasida iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish bo'yicha taklif va tashabbuslar ko'rib chiqildi.



QAYNOQ FASLNING UNUTILMAS HAYAJONLARI



14-iyuldan butun mamlakatimiz bo'ylab 2025/2026 o'quv yili uchun oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlari start oldi.

“Abituriyent – 2025”

Joriy yil oliy ta'lim dargohlariga kirish uchun 671 397 nafar abituriyent ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ularning 63 foizdan ortig'i joriy yilgi bitiruvchilar hisoblanadi.

Quvonarlisi, bu yil talabgorlar orasida ayollar soni o'tgan yillardagiga nisbatan ko'p, ya'ni 53,8 foizni tashkil qilmoqda. Bu esa xotin-qizlarning oliy ta'lim va talab yuqori bo'lgan kasblarga qiziqishi ortayotganidan dalolat, albatta.

Test sinovlari har kuni ikki smenada – 1-smena soat 08:00 dan 11:00 gacha, 2-smena 15:00 dan 18:00 gacha bo'lib o'tmoqda. Mamlakatimiz bo'yicha 65 ta yirik binoda tashkil etilayotgan sinov jarayonlarida har kuni 70 mingdan ortiq abituriyentlar qatnashmoqda. – Poytaxtimiz Toshkentda o'n kun ichida 115 mingdan ortiq abituriyentlar

test topshiradi, – deydi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi bo'lim boshlig'i Bobur Yusupov. – Sinovlar o'tkazish uchun “O'zekspomarkaz”, “Yoshlik” sport majmuasi va O'zbekiston Milliy universiteti sport zallari hozirlangan bo'lib, barchasida konditsioner hamda qulay partalar o'rnatilgan. Ehtiyoj chorasida sifatida tibbiyot xodimlari navbatchilik qilmoqda.

Jarayonlarni kuzatish maqsadida “O'zekspomarkaz” milliy ko'rgazmalar majmuasida bo'ldik. Bu yerda test sinovlarining shaffof, adolatli va xolis o'tishi uchun zarur tashkiliy va texnik choralar ko'rilgan. Ilm talabgorlaridan esa faqat bilim, xotirjamlik hamda tartib-intizom talab qilinyapti.



Senat qo'mitasida

SOG'LOM RAQOBAT – JADAL TARAQQIYOT ASOSI



Oliy Majlis Senati Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasining 15-iyul kuni bo'lib o'tgan majlisida Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining joriy yil birinchi yarim yilligida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi hisoboti eshitildi.

Muhokama davomida qayd etildi, ushbu davrda davlat boshqaruvi va mahalliy hokimiyat organlariga raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari normalarining buzilishi bilan bog'liq 87 ta taqdimnoma kiritilib, raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablariga zid deb topilgan 15 ta hujjat bekor qilingan.

Shu bilan birga, 21,1 ming iste'molchining 16 mlrd. so'm hajmdagi manfaatlari himoyaga olingan.

O'tgan davr mobaynida 320 ta, shu jumladan, 73 ta tabiiy monopoliya subyektida, tovar yoki moliya bozorida ustun mavqega ega bo'lgan 90 ta xo'jalik yurituvchi subyektda, davlat ishtirokidagi 48 ta korxonada, ekskluziv huquqlar berilgan 41 ta xo'jalik yurituvchi subyektda, 33 ta respublika hamda 35 ta mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyatida monopoliyaga qarshi kompayens tizimi joriy etilgan.

Shuningdek, joriy yilning birinchi yarim yilligida davlat buyurtmachilari tomonidan boshlang'ich qiymati 13,2 trln. so'mlik 13,6 mingta davlat xaridi

bo'yicha o'tkazilgan tahlillar natijasida buyurtmachilar tomonidan 8,8 mingta va savdolar jarayonida 13 mingta raqobatga zid harakat aniqlangan.

Qonun hujjatlarining raqobatga ta'sirini baholash metodikasi asosida vazirlik va idoralar tayyorlagan 439 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasining 219 tasida raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablariga zid normalar bartaraf etilgan.

Reklamalarning joylashtirilishi va tarqatilishi bo'yicha 7,8 mingdan ortiq holatlarda aniqlangan turli kamchiliklarni tezkor to'g'rilash choralari ko'rilgan.

Senatorlar hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi asosiy ko'rsatkichlarni tizimli ravishda tahlil qilib borish orqali raqobat muhitiga salbiy ta'sir etuvchi omillar va tizimli muammolarni bartaraf qilish ishlarini kuchaytirish yuzasidan o'z taklif va tavsiyalarini berdi.

Majlis yakunida qo'mitaning raqobatni rivojlantirish hamda iste'molchilar huquqlari himoyasiga qaratilgan tegishli qarori qabul qilindi.

“Xalq so'zi”.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

YURT RAVNAQI VA AHOLI FAROVONLIGINING MUHIM KAFOLATI



Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Spiker N. Ismoilov o'tgan haftada mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi muhim voqealarga to'xtaldi. Jumladan, 10-iyul kuni davlatimiz rahbari bunyodkorlik ishlari, aholining turmush sharoiti, sanoat korxonalari faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida poytaxtimizning Shayxontohur va Chilonzor tumanlarida bo'lib, jamoatchilik vakillari bilan muloqot qilgani, tashrif davomida aholi turmush darajasini yanada oshirish, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, gastroturizmni kengaytirish, bandlikni ta'minlash hamda tumanlarning sanoat salohiyatini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalar ko'rsatib o'tilgani qayd etildi.

10-iyul kuni Prezidentimizning “O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida”gi qarori qabul qilingani, unda ko'zda tutilgan vazifalar bayram tadbirlarini tantanali ruhda o'tkazish bilan birga, yangi O'zbekiston taraqqiyotining mazmun-mohiyatini, amalga oshirilayotgan islohotlar hamda yangilanishlar mazmunini xalqimizga va xalqaro jamoatchilikka yetkazishda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlandi.

Deputatlar korpusi joylarda uyushtiriladigan tadbirlar hamda saylov okruglaridagi uchrashuvlari davomida yurtimizdagi keng ko'lamli islohotlar va erishilayotgan yutuqlarni aniq misollar bilan aholiga yetkazishlari maqsadga muvofiqligi aytiladi.

Majlisda, shuningdek, sud mustaqilligini va sudyalarni daxlsizligini ta'minlash, yoqilgi-energetika resurslari bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olish, ta'lim xizmatlarini ko'rsatish sohasini takomillashtirish, yuqori qo'shilgan

qiymatli tovarlar ishlab chiqarishini kengaytirishga qaratilgan qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi.

Byurokratik to'siqlar bekor qilinmoqda

Majlisda “O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Muhokamada deputatlar ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini inobatga olib, tadbirkorlik subyektlarining vaqt va mablag' bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarni qisqartirish, sudlarda ko'riladigan ishlar bo'yicha ortiqcha ovoragarchiliklarning oldini olish, byurokratik to'siqlardan voz kechish orqali tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishni soddalashtirish zarurati mavjudligini alohida qayd etdi.



MEHNAT MIGRATSIIYASI SOHASI YANADA SHAFFOFLASHADI

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi majlisida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun dastlabki tarzda muhokama qilindi.

Muhokama

Majlisda senatorlar, Kambag'alikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Migratsiya agentligi mutasaddilari, mahalliy Kengashlarning doimiy komissiyalari va qo'mita huzuridagi ekspert guruhi a'zolari, Yoshlar parlamenti vakillari va ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Ta'kidlanganidek, mazkur qonun mehnat migratsiyasi sohasidagi xizmat ko'rsatish jarayonlarining shaffofligini ta'minlash, xususiyl bandlik agentliklari faoliyatini tartibga solish, ularning mas'uliyatini kuchaytirish, shuningdek, ish beruvchilar va xodimlarga qo'shimcha qulayliklar yaratishga qaratilgan.

Qonun bilan xususiy bandlik agentliklarining huquqlari va majburiyatlarini kengaytirish, ish vaqtidan tashqari ishlashning davomiyligini belgilash hamda shunday ish uchun haq to'lash

SENAT VA MAHALLIY KENGASHLAR HAMKORLIGINI KUCHAYTIRISH YO'LIDA

Oliy Majlis Senati tomonidan mahalliy Kengashlar doimiy komissiyalari a'zolarining bilim va ko'nikmalarini oshirish, qonunchilikdagi yangiliklardan xabardorligini kuchaytirish hamda o'zaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida tizimli ravishda seminar va amaliy tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

Seminar

Shu maqsadda joriy yilning 16-17-iyun kunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyat Kengashlari doimiy komissiyalari raislari va mahalliy Kengash kotibiyatlari xodimlari uchun Senat qo'mitalarida hamda Hududiy vakillik organlari faoliyatini o'rganish markazida amaliy o'quv mashg'ulotlari o'tkazilgan edi.

Bundan ko'zda tutilgan maqsad mahalliy vakillik organlarini parlament faoliyatiga yanada yaqinlashtirish, qonun ijodkorligi jarayonida ularning ishtirokini faollashtirishdan iborat.

Ushbu tadbirlar shu kunlarda ham davom etib, xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi kotibiyati xodimlari Senat huzuridagi Hududiy vakillik organlari faoliyatini o'rganish markazida amaliyot o'tamogda. Ular mazkur amaliyot doirasida Senat qo'mitalari va markaz faoliyati bilan tanishib, mahalliy Kengashlarning o'zaro hamkorligini mustahkamlash, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy

MAHALLA YOSHLARIGA AMALIY YORDAM KO'RSATILDI

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi a'zosi Shuhrat Aslanov Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumanidagi Saroy mahallasi yoshlari bilan uchrashdi.

Senator va yoshlar

Mahallada 10,7 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi, ularning 2,2 mingini yoshlar tashkil etadi. Ushbu hududda oqova suvning yo'qligi tomogqada dehqonchilik bilan shug'ullanish sharoitini og'irlashtirib, ayrim yoshlarning yerdan foydalanish imkoniyatlarini ham cheklagan. Senator mazkur muammo "Tashabbusli byudjet" jarayonida yechim topishi uchun amaliy yordam ko'rsatilishini ma'lum qildi.

Shuningdek, uchrashuvda yoshlarning bandligi, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, bilim va ko'nikmalarini oshirish, yashash sharoitlarini yaxshilash bo'yicha amaliy ishlar va qonunchilikdagi yangiliklar muhokamadagi o'tkazildi.

Senator mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat



Xususan, amaldagi qonunchilikka muvofiq soliqqa oid huquqbuzarliklar yuzasidan soliq organi tomonidan tadbirkorlik subyekting banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni 10 kundan ko'p muddatga to'xtatib turish to'g'risidagi qaror sud tomonidan soliq organining iltimosnomasiga asosan qabul qilinishi belgilangan. Bunda mazkur toifadagi huquqbuzarlik tadbirkorlik subyekti tomonidan tan olingan va e'tiroz bildirilmagan bo'lsa-da, uning bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni 10 kundan ko'p bo'lgan muddatga to'xtatib turish faqat sudlar tomonidan amalga oshirilishiga oid talablar soliq to'lovchilarga noqulayliklar keltirib chiqarmoqda.

Mazkur qonun loyihasi bilan Iqtisodiy protsessual hamda Soliq kodekslariga soliqqa oid nizolarni tegishli sudlar tomonidan ko'rib chiqish, shuningdek, soliqqa oid huquqbuzarliklar yuzasidan tadbirkorlik subyekting banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yish, basharti tadbirkor e'tiroz bildirmasa soliq organining qaroriga asosan amalga oshirilishi hamda soliq to'lovchi tomonidan huquqbuzarlik holatlari bartaraf etilgan taqdirda soliq organi qarori belgilangan tartibda darhol bekor qilinishi to'g'risidagi o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Qonun loyihasi milliy qonunchilik normalarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, byurokratik to'siqlarni olib tashlash tadbirkorlarning vaqti va mablag'i tejallishiga xizmat qiladi.

Qonun loyihasi ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

Sudlar faoliyatiga aralashuvlarning oldi olinadi

"Sudning mustaqilligi va sudyalar daxlsizligini ta'minlash choralari yanada kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Mazkur qonun loyihasi bilan sudda ishlarning har tomonlama, to'la va xolisona ko'rib chiqilishiga to'siq bo'lish yoki sud qarorining qabul qilinishi to'g'risida sudga turli shaklda qonunga xilof ravishda ta'sir o'tkazganlik uchun belgilangan jinoyi javobgarlik choralari takomillashtirilmoqda.

Shuningdek, nafaqat sud majlisi paytida, balki sud binosida sudga hurmatsizlik qilish holatlari uchun ham ma'muriy javobgarlik belgilanmoqda.

Qonun loyihasining qabul qilinishi sudyalar mustaqilligining kafolatlarini yanada kuchaytiradi hamda sudlar faoliyatiga har qanday aralashuvlarning oldini oladi.

Majlisda qonun loyihasi ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

Yoqilg'i-energetika resurslaridan samarali foydalanish ta'minlanadi

Majlisda yoqilg'i-energetika sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Mamlakatimizda energetika sohasini modernizatsiyalash, energiya resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish hamda hisob-kitob tizimini shaffoflashtirish borasida keng ko'lami

islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur o'zgarishlar sohaning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishni, shu jumladan, energiya resurslaridan foydalanish borasida joriy etilgan ayrim yangi tartib-taomillarning qonuniy asoslarini mustahkamlashni va ularda iste'molchilarning mas'uliyatini aniq belgilashni taqozo qilmoqda.

Shundan kelib chiqib, qonun loyihasida energiya resurslaridan samarasiz foydalanish hamda elektr energiyasini ishlatishtirish qoidalari buzilishining oldini olishga qaratilgan qator normalar belgilanmoqda. Xususan, loyihada energiya tarmoqlariga noqonuniy ulanish va energiya resurslarini o'zlashtirish holatlariga qarshi ta'sirchan choralar nazarda tutilgan. Bundan tashqari, O'zenergoinspeksiyaning yoqilg'i-energetika sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish borasidagi vakolatlari aniq ko'rsatib o'tilmoqda.

Mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi yoqilg'i-energetika sohasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasini yanada kuchaytirishga, halol faoliyat yurituvchi subyektlarni har tomonlama



qo'llab-quvvatlashga, qonuniylik va adolat tamoyillarini to'liq ta'minlashga yo'l ochadi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Noshirlik faoliyatining huquqiy asoslari yanada mustahkamlanmoqda

"Noshirlik faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimchalar va o'zgartirish kiritish haqida"gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda moddama-modda ko'rib chiqildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda noshirlik sohasini takomillashtirishga, sifatlari adabiyotlarni chop etishni qo'llab-quvvatlashga, kitobxonlik madaniyatini ommalashtirishga qaratilgan izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ularini tizimli davom ettirish maqsadida qonun loyihasi bilan "Noshirlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunga nashriyot bosh muharririning huquqiy maqomini belgilashga, kitobxonlik madaniyatini rag'batlantirishga qaratilgan qo'shimchalar va o'zgartirish kiritilmoqda.

Munozaralar davomida deputatlar qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida siyosiy partiyalar fraksiyalar tomonidan berilgan qator takliflar e'tiborga olingani va ularning aksariyati hujjat matnida o'z ifodasini topganini qayd etdi.

Qonun loyihasining qabul qilinishi noshirlik mahsulotlari qonunchilikka muvofiq sifatlari

chop etilishiga hamda jamiyatda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda qo'shimcha imkoniyatlar

Majlisda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Jahonda oziq-ovqat, ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab yildan-yilga ortib borayotgan bugungi kunda ushbu qonun loyihasining ahamiyati katta bo'lmoqda. Shu sababli loyiha yaqindagi Qonunchilik palatasida birinchi o'qishda qizg'in bahs-munozaralar asosida ko'rib chiqilgan edi.

Hujjat ikkinchi o'qishgacha bo'lgan davrda fermerlar, dehqonlar va boshqa mahsulot yetishtiruvchilar bilan yana bir bor muhokamalardan o'tkazildi.

Majlisda deputatlar dala chetlarida mahsulot yetishtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlarida asosida joriy etilgan yangi tartibga alohida e'tibor qaratishdi. Unga ko'ra O'simliklar karantini va himoyasi agentligi tomonidan har yili 1-yanvargacha qadar suv ta'minoti va ekin ekish imkoniyati mavjud bo'lgan yerlar tanlab olinadi va hududning iqlim sharoitidan kelib chiqib ekin turlari bo'yicha hokimliklarga taklif beriladi.

Hokimliklar tomonidan esa har yili 1-fevralga qadar tegishli yil hosili uchun dala chetlarida yetishtiriladigan mahsulot, ularning turi, ko'chati, urug'i va ajratilgan yer maydonlari bo'yicha yillik prognoz ko'rsatkichlar tasdiqlanadi.

Shuningdek, yangi tartibda dala chetlarida qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirganlarga fitosanitariya sertifikatini bepul berilishi, mevali payvandtagli ko'chatlarni sotib olish xarajatlarining 50 foizi miqdorida subsidiya ajratilishi hamda har bir mahsulot yetishtiruvchiga ko'mak ko'rsatish uchun O'simliklar karantini va himoyasi agentligining hududiy inspektorlari birkiritilishi kabi rag'batlantiruvchi mexanizmlar mavjud.

Ayib o'tilganidek, amaldagi qonunchilikda dala chetlarining ekin ekilishi ko'rsatilgan maydonlarida yer egasi o'zi maqbul ekin ekishi yoki ikkilamchi ijaraga bergan holda ekin ekilishini tashkil qilishi belgilangan. Agarva vazifa bajarilmasa, ya'ni yer egasi o'zi ekin ekmasa, oshirilgan soliq to'lashi, ikkilamchi ijarachi ekin ekmasa, jarimaga sabab bo'ladi.

Qonun loyihasida respublikamizning ayrim hududlarida iqlim sharoitidan kelib chiqib, aprel oyida ham birlamchi ekin ekilishi holatlari mavjudligini inobatga olgan holda mahsulotlarni 1-mayga qadar ekish zarurligi mustahkamlab qo'yilmoqda. Shuningdek, mahsulot yetishtirmaganlik uchun yer egasining qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlariga yer solig'ini oshirilgan holda hisoblash yer uchastkasining faqat ekin ekilmagan qismi uchun belgilanishi ko'rsatib o'tilmoqda.

Bundan tashqari, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga kiritilayotgan qo'shimchalar

ham amaliyot bilan uyg'un holda takomillashtirilib, jarima faqatgina dala chetlarini ikkilamchi ijaraga olgan ijarachilarga nisbatan qo'llanilishi belgilanmoqda. Ushbu jarimalar miqdori ham kamaytirilib, bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha qo'llanilishi nazarda tutilmoqda.

Qonun loyihasi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalaridan samarali foydalanish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning eng muhim sharti bo'lgan har qarich yerdan mahsulot undirishga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasiga mas'ul qo'mita – **Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi raisi Ravshan Mamutov** yana bir muhim masalaga deputatlar e'tiborini qaratib, qonun loyihasini ko'rib chiqishda moratoriy talablari inobatga olinganmi degan savollarga javob berdi.

Qo'mita raisining aytishicha, davlatimiz rahbarining 2023-yil 28-fevraldagi Farmonida 2023-yil 1-iyuldan 2026-yil 1-iyulgacha – tadbirkorlik subyektlariga nisbatan yangi turdagi javobgarlik va jazo choralari joriy etilmasligi belgilab qo'yilgan.

Qonun loyihasi bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 65-moddasi yangi ikkinchi qism bilan to'ldirilib, dala chetlarini ikkilamchi ijaraga olgan ijarachilar maqbul ekin ekmagani uchun javobgarlik belgilanmoqda. Bu tadbirkorlik subyektlariga nisbatan yangi ma'muriy javobgarlik chorasi bo'lib, moratoriy talabiga tushadi. Ya'ni tadbirkorlik subyektlariga nisbatan yangi turdagi javobgarlik va jazo choralari joriy etishga uch yillik moratoriy o'matilganidan kelib chiqib, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga kiritilayotgan qo'shimchalar bir yildan so'ng, ya'ni 2026-yil 1-iyuldan kuchga kirishi belgilanmoqda.

Shuningdek, Prezidentimizning 2025-yil 19-martdagi Farmonida nazarda tutilgan – kichik va o'rta biznes subyektlari zimmasiga yangi majburiyatlar yuklatilishini nazarda tutadigan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qililmasligi to'g'risidagi qoidalar ushbu hujjatga o'z ta'sirini ko'rsatmaydi. Chunki undagi "dala chetlarida mahsulot yetishtirish" bo'yicha majburiyat yangi majburiyat hisoblanmaydi. Amaldagi Yer kodeksining 40-moddasi va "Fermer xo'jaliklari to'g'risida"gi Qonunning 17-moddasida "qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarining dala chetlaridagi kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlarda maqbul ekinlar ekilishini yoki to' ko'chatlari o'tqazilishini ta'minlash" fermer xo'jaligining majburiyatlaridan biri sifatida belgilab qo'yilgan.

Shu nuqtayi nazardan, qonun loyihasi belgilangan moratoriy talablari asosida qayta ishlangan va ularga muvofiqlashtirilgan.

Muhokamadan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Pirotexnika buyumlarining noqonuniy muomalasi ustidan nazorat kuchaytiriladi

"O'zbekiston Respublikasi hududida pirotexnika buyumlarining muomalasi to'g'risida"gi qonun loyihasi birinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Ushbu qonun loyihasi bilan ayrim pirotexnika buyumlarini, xususan, xavfli hududlari kichik

“Ma’rifat va saxovat karvoni”: OCHIQ MULOQOT VA IJTIMOIIY KO‘MAK

Nurafshon shahrida “Ma’rifat va saxovat karvoni” orqali bir qancha tashkilot rahbarlari aholi bilan ochiq muloqot qilmoqda. Bu karvon mahallalar bo’ylab yo’lga chiqar ekan, ijtimoiy-maishiy muammolar o’rganiladi, kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam ko’rsatiladi, yoshlarga kasb-hunar va ta’lim sohalari bo’yicha maslahatlar beriladi.

Loyiha

– Bu tadbirning asosiy maqsadi – inson qadri har narsadan ustunligini amalda ko’rsatish. Shu jihatdan har bir fuqaroni roz qilish va ularning hayot sifatini yaxshilashga qaratilganiga mahallamiz misolida ham guvoh bo’lib turibmiz, – deydi Uchqun mahallasida yashovchi Lazokat Xoldorova.

“Ma’rifat va saxovat karvoni” tadbirlari doirasida Nurafshon shahridagi 22 ta mahallada istiqomat qiluvchi 539 ta ehtiyojmand oila holidan xabar olish ko’zlangan. Buning uchun 4 ta ko’mak guruhi tuzilgan bo’lib, ularga 108 nafar mas’ul birkirtirilgan. Mutasaddilar xonadonma-xonadon yurib, oilalarning ahvolidan xabar olmoqda, ularni qiynayotgan muammolarni o’rganmoqda.

Kam ta’minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga birinchi tibbiy yordam to’plamlari, dori-darmon va shaxsiy gigiyena vositalari, maktab o’quvchilari uchun o’quv qurollari, o’zbek va jahon adabiyotining sara namunalardan iborat kitoblar jamlamasi topshirilyapti.

Otabek ISROILOV
 (“Xalq so’zi”).

FAROVONLIGINING MUHIM KAFOLATI

boʻlgan Bengal mayoqchalari, dasturxon va tortlarni bezashda ishlatiladigan turli effekt beruvchi pirotexnika buyumlarini jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqarish, Oʻzbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, tashish, realizatsiya qilish, sotib olish, saqlash va ulardan foydalanishga oid amaldagi tartib saqlab qolinmoqda.

Shu bilan birga, qolgan xavfli turdagi pirotexnika buyumlarini esa faqatgina texnik va maxsus maqsadlarda ishlab chiqarish, saqlash, tashish, realizatsiya qilish va foydalanishga ruxsat berish koʻzda tutilyapti.

Qonun loyihasi pirotexnika buyumlari muomalasi sohasida nazoratni kuchaytirish va taʼsir choralarineng samaradorligini oshirish, shuningdek, sohadagi huquqbuzarliklarning oldini olish hamda maxsus moslashtirilagan sharoitlarda, nomaʼlum, sifatsiz komponentlardan ishlab chiqarilgan va sertifikatlanmagan, respublika hududiga noqonuniy yoʻllar bilan olib kirilgan pirotexnika buyumlaridan aholining jabrlanishi va zarar koʻrishi holatlarini bartaraf etishga qaratilgan.

Majlisda pirotexnika buyumlaridan hamda portativ lazerli nur tarqatqichlardan qonunga xilof ravishda foydalanishda jazo choralarini turlicha belgilanayotgan ayrim normalar yuzasidan aniqlashtiruvchi savollar koʻtarildi.

Qonun tashabbuskorlari bu boʻyicha atroficcha tushuntirish berib oʻtishgach, qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi oʻqishda qabul qilindi.

Taʼlim sohasida muhim yondashuv

Majlisda taʼlim xizmatlarini koʻrsatish sohasini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi oʻqishda koʻrib chiqildi.

Bugungi kunda bolalarning boʻsh vaqti va dam olinishi tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek, tijorat tashkilotlari madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yoʻnalishida maktabdan tashqari taʼlim faoliyati bilan shugʻullanib kelmogʻda. Shu bilan birga, hozirda aksariyat oʻquv markazlari, axborot-kutubxona va sogʻlomlashtirish muassasalarida katta yoshdagilarga ham taʼlim berilmogʻda. Bu esa, albatta, katta yoshdagi fuqarolarning ham bunday maskanlardan foydalanishlari uchun aniq huquqiy asoslarni yaratish va ularni mustahkamlashni talab etmogʻda.

Qonun loyihasida qoʻshimcha taʼlim nafaqat bolalar, balki katta yoshdagilarning ham ijodiy qobiliyatlarini oʻstirish va kasbiy koʻnikmalarini rivojlantirishga, intellektual va jismoniy takomillashuvga boʻlgan individual ehtiyojlarini qondirishga, sogʻlom turmush tarzini shakllantirishga, salomatlikni mustahkamlashga va boʻsh vaqtlarini samarali tashkil etishga qaratilishi belgilanmogʻda.

Qonun loyihasi bilan "Oʻzbekiston Respublikasining faxriy unvonlarini taʼsis etish toʻgʻrisida"gi, "Taʼlim toʻgʻrisida"gi, "Nogironligi boʻlgan shaxslarning huquqlari toʻgʻrisida"gi, "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari toʻgʻrisida"gi hamda "Pedagogning maqomi toʻgʻrisida"gi qonunlarga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish nazarda tutilmogʻda.

Mazkur qonunlarda "maktabdan tashqari" atamasi "qoʻshimcha taʼlim"ga almashtirilmogʻda. "Taʼlim toʻgʻrisida"gi Qonunda qoʻshimcha

taʼlim bolalar uchun taʼlim va katta yoshdagilar uchun qoʻshimcha taʼlim turlariga ajratilyapti. Hujjat bolalar va katta yoshdagilarning ijodiy qobiliyatlarini oʻstirish, kasbiy koʻnikmalarini rivojlantirish, sogʻlom turmush tarzini shakllantirish va boʻsh vaqtlarini samarali tashkil etish maqsadlarini nazarda tutmogʻda.

Majlisda qonun loyihasi yuzasidan qator savollar berildi. Xususan, **Oʻzbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi aʼzosi Imomnazar Tursunov** ushbu qonun loyihasi kuni kecha fraksiya yigʻilishida keng muhokama qilinganini qayd etib, jamiyatda ijtimoiy tenglik va imkoniyatlar yaratish uchun nogironligi boʻlgan yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar uchun maktabdan tashqari nodavlat taʼlim xizmatlarini koʻrsatish boʻyicha qanday imtiyozlar yaratish koʻzda tutiladi yoki amaliyotda qoʻllanilmogʻda, degan savol bilan murojaat qildi.

Qonun tashabbuskorlari koʻtarilgan masala yuzasidan batafsil tushuntirish berib oʻtdi.

Muhokamadan soʻng, qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi oʻqishda qabul qilindi.

Tadbirkorlik subyektlarini yanada qoʻllab-quvvatlash choralarini belgilanmogʻda

Majlisda tadbirkorlik subyektlarini qoʻllab-quvvatlash orqali aholi bandligini taʼminlash hamda yuqori qoʻshilgan qiymatli tovarlar ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi oʻqishda koʻrib chiqildi.

Qonun loyihasi bilan Soliq va Fuqarolik kodekslari hamda 3 ta qonunga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilmogʻda. Xususan, tadbirkorlik subyektlarini tugatish uchun amaldagi 3 yil ichida faoliyatini tiklamaganlik talabi 1 yilga qisqartirilib, soliq organining tashabbusi bilan roʻyxatdan oʻtkazuvchi organning qaroriga koʻra tugatish taklif etilmogʻda. Shuningdek, yuqori texnologiyalar asosida mahsulotlar ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlariga foyda soligi va mol-mulk soligʻidan imtiyoz berilishi nazarda tutilmogʻda.

Hududiy yaylov xoʻjaliklarining doimiy foydalanishdagi yaylov yerlari yer soligʻidan ozod qilinmogʻda.

Shu bilan birga, oʻzini oʻzi band qilgan shaxslarni soliqqa tortishga oid qonun hujjatlaridagi nomuvofiqlik holatlarini bartaraf etish, yengil sanoat va xizmatlar sohasini, ipoteka bozori va farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar va kreativ parkning rezidentlarini qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan soliq imtiyozlarini taqdim qilishni nazarda tutuvchi oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilmogʻda.

Muhokamada deputatlar qonun loyihasi bilan tovarlarni xalqaro tashishni tashkil etishda koʻrsatilgan transport-ekspeditirlik xizmatlariga nisbatan qoʻshilgan qiymat soligʻining nol stavkasini qoʻllash, dorivor oʻsimliklarni yetishtirish va qayta ishlash kooperativlari xodimlari uchun ijtimoiy soliq hamda daromad soligi stavkasi 1 foiz miqdorida belgilanishi mazkur soha rivoji uchun katta turki boʻlishini taʼkidlashdi.

Majlisda qonun loyihasi yuzasidan bir qator prinsipial savollar koʻtarildi. Jumladan, **Oʻzbekiston Liberal-demokratik partiyasi**

fraksiyasi aʼzosi Saydullo Azimov qonun loyihasida daromad soligʻidan ozod qilish orqali Davlat byudjetiga taʼsir etishi mumkin boʻlgan yoʻqotishlar masalasida oʻz xavotirini bildirdi. Deputat bu borada quyidagi aniq savolni ilgari surdi: berilayotgan imtiyozlar natijasida Davlat byudjetiga tushmaydigan mablagʻlar qanday manbalar hisobiga qoplanadi? Buning kompensatsiya mexanizmi ishlab chiqilganmi? Agar yoʻq boʻlsa, bu hujjat kelgusida ijtimoiy



xarajatlarni qisqartirish yoki ichki moliyaviy muhitga salbiy taʼsir koʻrsatish ehtimoli yoʻqmi?

Xalq vakili, shuningdek, amalda yuqori texnologiyalar joriy etish imkoniyati, asosan, yirik sanoat subyektlariga tegishli ekan, kichik va oʻrta biznes subyektlarining bunday texnologiyalarga oʻtish imkoniyati cheklanganligini taʼkidlab, tashabbuskorlardan ushbu soliq imtiyozni ertaga kichik biznes uchun bozorda adolatsiz raqobat sharoiti yuzaga kelishiga, narxlarini yirik ishlab chiqaruvchilar belgilashiga sabab boʻlmaydimi? Bu holatda davlat tomonidan kichik va oʻrta biznesni qoʻllab-quvvatlash uchun qanday muvozanat mexanizmlari nazarda tutilgan, degan savollarni ham koʻtardi.

Qonun tashabbuskorlari savollarga atroflicha javob berishdi.

Majlisda qonun loyihasi birinchi oʻqishda qabul qilindi.

Xavfsiz muhit, jamoatchilik tartibi – ustuvor masala

Majlisda mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi hamda jamoat tartibini saqlash sohasiga oid qonun loyihasi birinchi oʻqishda koʻrib chiqildi.

Maʼlumki, kriminogen vaziyat ogʻir mahallalarda holatni barqarorlashtirish hamda jinoyatlarni barvaqt profilaktika qilish maqsadida mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati takomillashtirilib, profilaktika bosh va kichik inspektorlari lavozimlari joriy etilgan. Biroq ichki ishlar organlari tizimidagi ishlarni koʻrish va choralarini qoʻllash vakolati faqat mahalladagi profilaktika inspektorlariga berilgan boʻlib, bunday vakolat huquq-tartibot maskanlaridagi bosh va kichik inspektorlardan mavjud emas.

Qonun loyihasi bilan huquq-tartibot maskanlaridagi ushbu inspektorlarda maʼmuriy ishlarni koʻrish va choralarini qoʻllash vakolati berilmogʻda.

Bundan tashqari, hozirda ichki ishlar organlarining patrul-post xizmati inspektorlariga aniqlangan ayrim huquqbuzarliklar boʻyicha maʼmuriy bayonnomalar rasmiylashtirish vakolati berilgan boʻlsa-da, ushbu maʼmuriy bayonnomalar yuzasidan choralarini qoʻllash vakolati tizimdagi boshqa mansabdor shaxslarga, jumladan, ish

yuklamasi katta boʻlgan tuman (shahar) ichki ishlar boʻlim boshliqlari va oʻrinbosarlari, transportda xavfsizlikni taʼminlash boʻlinmalari boshliqlari hamda profilaktika inspektorlariga yuklatilgan. Bu esa maʼlum ish boʻyicha qaror qabul qilishda fuqarolarning ortiqcha vaqt sarflashiga sabab boʻlmogʻda.

Shu sababli, mazkur qonun loyihasi bilan patrul-post xizmatining mansabdor shaxslari tomonidan tuzilgan maʼmuriy bayonnomalarni koʻrib chiqish vakolati ularning rahbariyatiga ham berilmogʻda.

Ushbu qonun loyihasi mahallalarda kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish hamda jamoat tartibini saqlash borasidagi ishlarning samaradorligini oshirishni nazarda tutmogʻda.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi oʻqishda qabul qilindi.

Parlament soʻroviga yuborilgan javob koʻrib chiqildi

Oʻzbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi hamda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qoʻmitasi tashabbusi bilan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vaziri A. Abduhakimovga joʻnatilgan parlament soʻrovida chiqindi poligonlarini maqbullashtirish, qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash hamda utilitatsiyasi borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirishlar berish soʻralgan edi.

Vazir tomonidan parlament soʻroviga yoʻllangan javobda keltirilishicha, mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, hududlarning sanitariya va ekologik holatini yaxshilash boʻyicha zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmogʻda.

Xususan, qattiq maishiy chiqindilarni toʻplash, utilitatsiyalash, qayta ishlash va koʻmish boʻyicha samarali tizimni yaratish maqsadida qabul qilingan 2019 – 2028-yillar davrida Oʻzbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bogʻliq ishlarni amalga oshirish strategiyasiga muvofiq, 2019 – 2024-yillarda jami 48 ta maishiy chiqindi poligoni rekvitativsiya etilib, yopilgan.

Javobda aytilganidek, joriy yilda 18 ta qattiq maishiy chiqindi poligonini rekvitativsiyalash va tuproq bilan yopish koʻzda tutilgan. 2025 – 2027-yillarda kuniga 14 ming tonna chiqindini qayta ishlash quvvatiga ega zavodlarni ishga tushirish rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, muhokama chogʻida deputatlar tomonidan yuqoridagi strategiyada belgilangan ayrim vazifalarning ijrosini taʼminlashda muddatidan kechikish holatlari mavjudligiga eʼtiroz bildirildi. Vazirlik bu boradagi ishlarni yanada jiddillashtirishi zarurligi aytildi.

Majlisda atrof-muhitni muhofaza qilish, aholining salomatligini asrash, hududlarning sanitariya va ekologik holatini yaxshilash masalalari deputatlar korpusining doimiy eʼtiborida ekanligi alohida qayd etildi. Oʻz navbatida, kun tartibidagi ushbu dolzarb masala yuzasidan kelgusida ham taʼsirchan parlament nazorati olib borilishi maʼlum qilindi.

Parlament soʻroviga Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirining javobi yuzasidan Qonunchilik palatasining tegishli qarori qabul qilindi.

“Xalq soʻzi”.

VASHINGTONDA “OʻZBEKISTON BIZNES YETAKCHILARI” DASTURI MUHOKAMASI



“Amerika kengashlari” prezidenti Liza Choate soʻnggi yillarda Oʻzbekiston Prezidenti tashabbusi bilan mamlakatda biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilganini taʼkidladi.

– Biz Oʻzbekistonda ingliz tilini biladigan hamda oʻz biznesini yoʻlga qoʻygan ikki mingdan ortiq hujjat topshirgan isteʼdodli va yetakchi tadbirkorlarni koʻrib hayratda qoldik. Bularning barchasi mamlakatingiz rahbari tomonidan olib borilayotgan samarali islohotlar natijasidir. Xususan, soliq va bojxona imtiyozlari, kredit va investitsiyalarning oshirilishi, tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish, yangi infratuzilmalar qurilishi hamda davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi orqali biznes muhiti sezilarli darajada yaxshilanganining guvohi boʻlaypmiz.

AQSh Davlat kotibining taʼlim va madaniyat masalalari boʻyicha yordamchisi oʻrinbosari

Rebekka Passini taʼlim ikki mamlakat aloqalarining muhim yoʻnalishi ekanini, Davlat departamenti bundan keyin ham bu sohadagi hamkorlikka alohida eʼtibor qaratishini bildirdi.

Bu yilgi dastur Chikago, Klelend va Pittsburgda tashkil etildi. Dastur oʻzbekistonlik biznes yetakchilarining zamonaviy biznes koʻnikma va bilimlarini oshirish, innovatsion fikrlash va xalqaro tarmoq yaratish, AQSh va Oʻzbekiston oʻrtasida iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadlarini qamrab oldi.

“Amerika kengashlari” prezidentining soʻzlariga koʻra AQSh Davlat departamenti ushbu dasturning istiqbolli ekaniga ishonch bildirib, buni moliyalashtirishni maʼqul deb topgan.

– Bu taʼlim sohasidagi dasturlar va ikki tomonlama hamkorlik oʻzini qoplayotganining natijasidir, – dedi kengash rahbari.

“Dunyo” AA.
Vashington



Xonqa tumanidagi “Billur-salt” korxonasida oʻn turdagi oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan, osh tuzi ishlab chiqarilib, ular ichki bozordan tashqari – xorijga ham eksport qilinmogʻda.

Yaqinda korxonada ekstra tuz ishlab chiqarish boʻyicha qiymati 10 mln. AQSh dollariga teng boʻlgan yangi loyiha ishga tushirildi.

– Germaniyada ishlab chiqarilgan zamonaviy texnologik uskunalar keltirib oʻrnatilgach, korxonamizning eksport salohiyati yanada oshdi, – deydi bosh mutaxassis Xushnud Qilichev. – Ishlab chiqarilgan mahsulotni Afgʻoniston, Tojikiston va Qirgʻizistonga joʻnatyapmiz. Oʻtgan yili 11 ming tonna osh tuzi yetkazib berilgan boʻlsa, joriy yilda bu koʻrsatkichni 30 ming tonnagacha oshirishni reja qilganmiz.

Odilbek ODAMBOYEV
 (“Xalq soʻzi”).



Yurtimiz tabiiy-iqlim sharoiti bir yilda kamida ikki marta hosil olish imkonini beradi. Aytaylik, gʻalla 15 – 20-iyungacha yigʻishtirib olingan taqdirda ham, undan keyin qariyb toʻrt oy, yaʼni 120 – 130 kun issiq va haroratli damlar davom etadi. Boshqacha aytganda, saxovatli zaminimiz kerakli miqdorda foydali harorat yigʻindisini qabul qiladi. Bu esa sabzavot, poliz, kartoshka va dukkakli ekinlar yetishtirish uchun ayni muddaodir. Bunga oʻtgan yili gʻalladan boʻshagan yerda oziq-ovqat ekinlari ekib, moʻmay daromad qilgan fermerlar faoliyati yaqqol misol boʻla oladi.

Bugunning gapi

“Asadbek orzu fayz” fermer xoʻjaligi shular hisobiga kiradi. Toshkent viloyatining Oʻrta Chirchiq tumanida joylashgan mazkur fermer xoʻjaligi jamoasi oʻtgan yilgi tajribadan kelib chiqqan holda, gʻalladan boʻshagan 50 gektar maydonni darhol shudgorlab, sabzavot, dukkakli ekinlar hamda kartoshka urugʻi qadadi. Buning hisobiga 13 nafar ishchi fuqaro mavsumiy ishga jalb etilib, qora qozoni qaynaydigan boʻldi. Shundan 5 nafari yosh yigitlar

ekinlari, ayniqsa, eʼtiborga molik.

Bugun ichki imkoniyatlardan oqilona foydalanib, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtirish mazkur fermer xoʻjaligi jamoasi eʼtibor qaratilayotgani bejiz emas, albatta. Chunki aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror taʼminlash dunyo mamlakatlari uchun eng dolzarb masala boʻlib qolmogʻda. Shu bois ham mamlakatimizda takroriy dehqonchilik evaziga ichki bozorni arzon mahsulotlar bilan toʻldirish, eksport hajmini

qishloq xoʻjaligi ekinlari urugʻi qadab boʻlindi. Qolgan joylarda ham oziq-ovqat ekinlarini ekish ishlari yakuniga yetkazilmogʻda.

Taʼkidlash kerakki, Prezidentimizning yoshlarga yer ajratish boʻyicha tashabbusi bilan qariyb 60 ming gektar yer qishloq yigit-qizlariga berilgan edi. Bu ham katta hayot ostonasida turgan yoshlar bandligini taʼminlash barobarida, ichki bozorni arzon va sifati oziq-ovqat mahsulotlari bilan toʻldirishda yangi imkoniyatlar ehsigini ochdi.

Bunday yerlarda tajribali fermerlar koʻmagida dehqonchilik qilyotgan 200 mingdan ortiq gʻayratli yoshlarimiz ayni kunlarda birinchi hosilini yigʻishtirib olib, ikkinchi ekinini ekishga kirishgan. Dastlabki hisob-kitoblarga qaraganda, ularning har biri mavsum davomida oʻrtacha 10 – 15 million soʻm daromad olishi kutilmogʻda.

Binoabar, agrar sohadagi islohotlardan koʻzlangan maqsad ham, eng avvalo, aholi bandligini taʼminlash va turmush farovonligini yuksaltirishdir. Takroriy ekin ekib, yerdan foydalanib samaradorligini oshirishga qaratilgan bugungi saʼy-harakatlar zamirida esa xalqimizning kundalik zaruri oziq-ovqat mahsulotlariga boʻlgan talabini toʻliq qondirish, yurtimizda yilning toʻrt faslida ham narx-navo moʻtadilligini taʼminlashdek ezuq maqsad mujassam. Zero, takroriy ekindan dehqon ham, xaridor ham manfaatdordir.

“Xalq soʻzi”.

Arnasoy tumanida Xitoyning “Bashiran Co., Ltd” kompaniyasi tomonidan tomchilatib sugʻorish tizimi uchun shlang ishlab chiqarish zavodi qurilishi boshlandi.

Mushohada

Sun'iy intellekt (SI)ning ta'lim, ayniqsa, oliy ta'limga ta'siri haqida gapirganda, e'tibor uning dramatik rivojlanishining tahdidlari yoki noaniqliklariga emas, balki bashoratlarga qaratiladi. Ko'pgina mualliflarning tahlillari yoki hisobotlari sun'iy intellekt allaqachon katta o'zgarishlarni amalga oshirayotgani va bu kelgusida muttasil davom etishini ta'kidlash bilan boshlanadi.

Oliy ta'limda sun'iy intellekt odamlar hamda jamiyat uchun katta foyda keltirishi, shubhasiz. Biroq bu tanqidiy fikrlash qobiliyati va akademik yaxlitlik ko'pchilik tahlilchilar ko'rgan yoki talab qiladigan o'zgarishlarning boshida turishini ta'minlashga bog'liq. Zotan, SI generativ bo'ladi, bugungidek tor yo'naltirilganmi yoki ko'p maqsadlimi, ta'lim ijodkorlikni har jihatdan rivojlantirishi va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini yaxshilashi kerak.



SUN'YIY INTELLEKT

OLIIY TA'LIM RIVOJIGA QANDAY TA'SIR KO'RSATMOQDA?

SI afzalliklari ta'limni baholashda ham, tadqiqot jarayonlarida ham, ma'lumotlarda ham noto'g'ri qarashlar (masalan, buzilgan ma'lumotlar) va potentsial fribgarlik (plagiat yoki sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan kontentdan noto'g'ri foydalanish) bilan kamayadi. SI vositalaridan axloqiy, siyosiy va iqtisodiy savollarni keltirib chiqaradigan muammolarni hal etishda kengroq foydalanish mumkin. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, yirik texnologiya kompaniyalarining sun'iy intellektni rivojlantirishdagi ustun o'rni vaziyatni yanada murakkablashtiradi. Chunki bu kompaniyalar umumiy manfaatlariga avtomatik ravishda mos kelmaydigan hamda puxta va tanqidiy tekshirishni talab qiladigan texnologiyalarni joriy etish hamda kengaytirishdan manfaatdor bo'lib, hozirgacha bu borada juda kam ish olib borilgan.

Sun'iy aqlning ta'limga "mas'uliyatli" integratsiyalashuvini ta'minlashda o'qituvchilar – olimlar, tadqiqotchilar va universitet ma'murlari amalga oshirishi kerak bo'lgan hal qiluvchi vazifa haqida konsensus mavjud. Bu, birinchi navbatda, vazifalari bo'yicha farqlangan oliy ma'lumotli mutaxassislar uchun kasbiy rivojlanish va doimiy treningni o'z ichiga oladi. Shuningdek, ular bilan laboratoriya hamda sanoatdagi SI mutaxassislari o'rtasidagi faol hamkorlikni ko'zda tutadi. O'qituvchilar, muhandislar va sanoat tadqiqotchilari birgalikda ishlash, o'quv natijalarini yaxshilash hamda bilim, ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun sun'iy idrok salohiyatini ro'yobga chiqarishga yordam beradi.

Aynan oliy ta'limda sun'iy intellekt ulkan salohiyatga ega, deb qaraladi. Undan nafaqat kontent yaratish va o'rganish tajribasini shaxsiylashtirish, balki talabalarni ta'limga yanada chuqurroq jalb qilish uchun ham foydalanish mumkin. Masalan, sun'iy intellektga asoslangan o'quv platformalari mashqlarni talabalarning individual ehtiyojlariga moslashtirishi mumkin, faol o'rganishni rag'batlantiradigan shaxsiy fikr-mulohazalarni taqdim qila oladi. Ko'proq meta-tahlil darajasida SI, shuningdek, talabalarni ularga taqdim etilgan ma'lumotni tanqidiy talqin qilishga undashi mumkin, bu ularning tushunishini chuqurlashtiradi va

intellektual qat'iylilni rag'batlantiradi. Masalan, plagiat tekshiruv yoki ma'lumotlarni tahlil qilish algoritmlari kabi sun'iy intellekt vositalari talabalarga o'z tadqiqotlarining axloqiy jihatlarida fikr yuritishga yoki manbalarining ishonchilligini tekshirishga yordam beradi.

Bitta savol qolmoqda: sun'iy idrokning ta'lim, ayniqsa, oliy ta'limdagi o'rni haqidagi juda optimistik qarashlar texnologiya integratsiyasining tarixiy modellari mos keladimi? Ta'limdagi texnologik yutuqlar tarixini, shuningdek, massivlanishini o'rganish, oliy ta'limda xalqaro raqobatning kuchayishi boshqa muhim savollarni ham tug'dirmoqda. Biz chuqur institutsional o'zgarishlar yoki ta'lim va o'qitish jarayoniga qisman integratsiyalashgan tarqoq amaliyotlarning guvohi bo'lyapmizmi?

Ushbu savollarni tushunish va ularga javob berish uchun texnologiya



ko'ramiz.

Ta'lim va tadqiqotda texnologik vositalarning, xususan, bugungi sun'iy intellektning qasddan yoki haqiqiy integratsiyasi ishlab chiqarish hamda bilimlarni o'rganish o'qitish jarayonlarini standartlashtirdi, shu bilan birga, tanqidiy yondashuvlarning yo'qolishi haqida tashvish uyg'otdi. Biroq paydo bo'layotgan fanlararo sa'y-harakatlar, jumladan, "texno-raqamli insonparvarlik"ni aniqlash

“Cun'iy intellekt rasmiy va norasmiy ta'lim o'rtasidagi chegaralarni yo'qotib, odamlar uchun yanada qulayroq ta'lim tajribasini taklif etadi. Ammo oliy ta'lim muassasalari, ayniqsa, bilimlarni baholashda mazkur o'zgarishlarni qabul qilishda sustkashlik qilmoqda. Magistratura va doktorlik dasturlari kabi tadqiqotni talab etadigan fanlarda SIning ta'siri tezroq bo'ladi hamda unumdorlik va o'quv natijalarini yaxshilashi mumkin.”

hamda uning jamiyat, tashkilotlar, ta'lim yoki bilimlarni ishlab chiqarish va tarqatish bilan bog'liq murakkab munosabatlari haqidagi ijtimoiy fan tushunchasiga asoslanib, afsonalar va orzularni yoki shov-shuvlarni haqiqatda hamda aniq bilgan narsalarimizdan ajratishga harakat qilamiz.

Birinchiidan, biz SI, raqamli texnologiyalarning bilim, ta'lim va madaniyatni o'zgartirishga yordam berishdagi rolini ko'rib chiqamiz. Ushbu o'zgarishlarni nafaqat odamlarni o'rganish uchun qurilmalardagi evolyutsiya sifatida, balki ratsionallikni amalga oshirishning yangi bosqichi va keng tarqalgan irratsionallikning rivojlanishi uchun mumkin bo'lgan signal sifatida

imkoniyati, texnologik taraqqiyotni ijtimoiy-falsafiy va badiiy mulohazalar bilan muvozanatlashga intilish murakkab, doimiy o'zgaruvchan dunyoda bilimlarni chuqurroq, yaxlitroq tushunishga potentsial hissa qo'shadi.

Ikkinchiidan, e'tirof etish kerakki, oliy ta'lim tadqiqot, o'qitish va boshqaruvda Sini qabul qilish va targ'ib etish uchun katta bosimga duch kelmoqda. Ko'pgina hisobot hamda sharhlarda ta'kidlanganidek, sun'iy intellekt o'qitishni shaxsiylashtirishi, ma'muriy vazifalarni avtomatlashtirishi va tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlashi, talabalar natijalari hamda institutsional samaradorlikni oshirishi kutilmoqda. Ayni chog'da

universitetlar SI ishlarnalarida xabardor bo'lish va talabalarni tegishli ko'nikmalar bilan jihozlash, ta'limni texnologik va iqtisodiy ehtiyojlarga moslashtirish bo'yicha uzoq yillik tendensiyaning davom ettirish uchun sanoat bilan hamkorlik qilishga chaqiriladi.

Uchinchiidan, ko'ryapmizki, sun'iy intellekt o'qitish, tadqiqot va boshqaruvni shakllantirish orqali oliy ta'limga ta'sir ko'rsatishi bilan birga, o'zgarishlarning yagona omili emas va o'nlab yillar davomida oliy ta'limning o'zagi bo'lib kelgan kasbiy bosimni yumshatish va innovatsiyalar uchun raqobatbardoshlikni oshirish uchun strategik jihatdan foydalaniladi. Shuni yodda tutish lozimki, oliy ta'lim katta o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda, nufuzli universitetlar jahon standartlarini belgilaydi va boshqalar mahalliy ilovalarga e'tibor qaratadi. Texnologik ilm, raqamli vositalar hamda SI innovatsiyalar va iqtisodiy o'sishni ta'kidlaydigan boshqaruv modellari homiyligida o'qitish yoki tadqiqotni qayta shakllantirmoqda.

Sun'iy idrok orqali ta'limni tubdan o'zgartirish haqidagi bashorat hali ham haqiqatdan uzoq. Murakkab texnologiyaning o'zi inson ta'limining turli maqsadlari va cheklavlarini hal qila olmaydi. Shuningdek, tadqiqot, jamoat xizmati yoki o'qitishni ham sifat jihatdan o'zgartirmaydi. Sining to'liq shaxsiylashtirilgan o'rganishga o'tishi kabi ta'lim bashoratlari hali amalga oshirilmaydi. Bundan tashqari, SI va ommabop ochiq ta'lim tizimlari kabi texnologiyalar ko'pincha mavjud tengsizliklarni kuchaytiradi, avtonom tarzda o'rganish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarga ega bo'lganlarga foyda keltiradi va boshqalarni ortda qoldiradi. Shuningdek, SI vositalarining til o'rganish kabi sohalarida taraqqiyoti cheklanganicha qolmoqda. Ko'pgina ta'lim dasturlari minimal shaxsiylashtirish bilan chiziqli, yagona o'lchamli yondashuvlarga amal qiladi.

Ammo inqilobiy bashorat haqiqatdan uzoq bo'lsa ham, (generativ) SI allaqachon kattaroq raqamli ekotizimning bir qismi bo'lib, ta'limni tobora o'zgartirmoqda. Sun'iy intellekt vositalari multimedia imkoniyatlari va qulay interfeyslari bilan til o'rganish, matematika hamda informatika kabi turli fanlar bo'yicha

Халқ сўзи
Народное слово

ТАНҶОБИ

boshlang'ich kurs talabalariga, haqiqatan ham, foyda keltirishi mumkin. Bu vositalar, shuningdek, talabalarga anonim tarzda mashq qilish imkonini beradi, mulohazalar va xijolatlarni minimallashtiradi.

Albatta, sun'iy intellekt rasmiy va norasmiy ta'lim o'rtasidagi chegaralarni yo'qotib, odamlar uchun yanada qulayroq ta'lim tajribasini taklif etadi. Ammo oliy ta'lim muassasalari, ayniqsa, bilimlarni baholashda mazkur o'zgarishlarni qabul qilishda sustkashlik qilmoqda. Magistratura va doktorlik dasturlari kabi tadqiqotni talab etadigan fanlarda SIning ta'siri tezroq bo'ladi hamda unumdorlik va o'quv natijalarini yaxshilashi mumkin.

Sun'iy idrokning haqiqiy ta'sirini baholash uchun ba'zi sohalariga e'tibor qaratilmoqda. Masalan, u san'at yoki ijodiy ta'limda ham qiziqish uyg'otdi. Ba'zilar sun'iy intellekt haqiqiy ijod uchun zarur bo'lgan hissiy chuqurlikka ega emasligini ta'kidlasa, boshqalar uni badiiy imkoniyatlarni kengaytirish vositasi sifatida ko'rmoqda.

Til o'rgatish yo'nalishida chatbotlar va lingvistik modellar kabi sun'iy intellekt vositalari talabalar, ayniqsa, yangi boshlovchilar uchun qulay imkoniyatlarni taqdim etayotir. Biroq bu vositalar qimmatli yordam ko'rsatsa-da, ular ko'pincha murakkab aloqa vazifalari uchun zarur bo'lgan imkoniyatlarga ega emas. Yuqori texnologiyalarga asoslangan aqlii repetitorlik tizimlari moslashtirilgan fikr-mulohazalar va shaxsiylashtirilgan o'rganish tajribasini taklif etish orqali ushbu muammolarni hal qilish imkoniyatiga ega.

Ammo hozirgi ilovalarning aksariyati o'quv tajribasini to'liq shaxsiylashtirish qobiliyatida cheklangan. Shunga qaramay, sun'iy intellekt uchun ma'lumotlarga asoslangan algoritmlar va tahlillar orqali o'rganishni shaxsiylashtirish imkoniyati katta.

Botir USMONOV,
Toshkent kimyo-texnologiya
instituti rektori, professor.

QAYNOQ FASLNING UNUTILMAS HAYAJOHLARI



Jarayon qat'iy nazorat ostida bo'lib, abituriyentlar faqat shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport yoki ID-karta) va ruxsatnoma bilan imtihonga kiritilmoqda. Sumka, telefon, hamyon, soat hamda boshqa shaxsiy buyumlar maxsus saqlash joyiga topshirilmogda, u bepul va kafolatlangan.

Qayd etish joizki, talabgorlar o'zini bemalol his qilib imtihon topshirishlari uchun keng va yorug' pavilyonlarda qulay partalar, suv, ruchkayu qalamlar, qoralama uchun varaqlar, matematika hamda fizika formulalari, kimyo fanidan test topshiruvchilar uchun Mendeleev jadvali ham taqdim etilgan.

Imtihon mahallida abituriyentlar 3 soat ichida 3 ta majburiy va 2 ta ixtisoslik fanidan 90 ta test topshirishadi va ularning to'plagan ballari test sinovi o'tkazilgan kunning ertasiga, talabalikka tavsiya etilgani yoki etilmagani bo'yicha tanlov natijasi qabul jarayonining ikkinchi bosqichi to'liq yakunlanganidan keyin bir hafta muddatda agentlikning rasmiy veb-saytiga joylanadi.

Jarayonlar juda qizg'in kechdi va menga unutilmas xotiralarni, hayajonlarni baxsh etdi, – deydi abituriyent Temurbek Samandarov. – Birinchi kundan imtihonga kirishning hayajoni ham, mas'uliyat ham katta bo'larkan. Shu paytgacha to'plagan bilimlarim, ustozlardan o'rganmalarim asosida testlarni yechdim, har holda o'zimdanda ko'nglim to'q. Nasib qilsa, albatta, talaba bo'laman.

Darhaqiqat, so'nggi yillarda test sinovlari maksimal darajada shaffof o'tkazilmoqda, korrupsiya xavflari bartaraf etilmoqda. Bu esa yildan-yilga oliy ta'lim muassasalariga kirishni istovchilar safi o'rishi hamda ularning tizimga nisbatan ishonchini mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Test sinovlari 23-iyul kuni yakunlanadi.

Rahmatjon BOBOJONOV
("Xalq so'zi").

REKLAMA

Qiziqish bildirishga so'rov

“O'zbekistonda raqamli inklyuzivlik” loyihasi

Kredit raqami: 7425-UZB

Xizmat tavsifi: “Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi” MCHJ “O'zbekistonda raqamli inklyuzivlik” loyihasi doirasida UZ-DIP-497860-CS-INDV – GameDev bo'yicha mutaxassis xizmatlari uchun xalqaro shaxslarni (“Individual konsultant”) qiziqish bildirishga taklif qiladi.

Qiziqish bildirishning oxirgi

muddati: 2025-yil 27-iyul.

Batafsil ma'lumot uchun:

udip@it-park.uz, _

(71) 209-11-99, (90) 929-60-49

“NURAFSHON”DA KECHAYOTGAN RANGIN LAHZALAR



“Nurafshon” yozgi bolalar dam olish oromgohi Kitob tumanining Qaynar qishlog'i hududida, salqin, so'lim va bahavo manzilda joylashgan. Ayni paytda oromgohda 3-mavsumda 200 nafarga yaqin bolajonlar maroqli hordiq chiqarmoqda. Ularning iste'dodini yuzaga chiqarish, jamoaviylik va tashabbuskorlikni oshirishga qaratilgan sport musobaqalari, ijodiy tanlovlar, ma'naviy-ma'rifiy muloqotlar, davra suhbatlari o'tkazib borilmoqda.

“Yozgi ta'til – 2025”

Ana shunday tadbirlardan biri Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qashqadaryo viloyati bo'limi rahbari, senator Komila Karomova hamda xalq deputatlari viloyat Kengashi raisi Ismigul Xushmurodova ishtirokida tashkil etildi.

– Tadbir doirasida oromgohda yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdik, bolajonlar bilan dildan muloqot qildik, – deydi senator Komila Karomova. – Shu bilan bir qatorda, ularning qiziqishidan kelib chiqqan holda ijodiy, intellektual tanlovlar hamda sport

musobaqalari ham tashkil etildi. Bugungi yoshlarimizning har jabhada faolligi, zukkoligi, bilimi bizni xursand qildi.

Oromgohda o'tkazilgan tanlov va musobaqalarda faollik ko'rsatgan bolajonlarga tashkilotchilarning esdalik sovg'alari topshirildi.

Jahongir BOYMURODOV
("Xalq so'zi").



Joriy yil 14-iyul holatiga ko'ra respublika bo'ylab jami 200,3 ming tonna urug'lik don jamg'arildi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-642. 11 845 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqab. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'yozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir H. Qarshiboyev.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 23.00 Topshirildi – 23.45

1 2 3 4 5 6